

Obuna indeksi - 904

ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

PUBLIC EDUCATION

4/2021

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

XALQ TA'LIMI

5
2021
(sentyabr-oktyabr)

ISSN 2181-8088



9 772181 808805

www.pubedu.uz



<https://t.me/xalqtaлимijn>



XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

5-son

(sentabr-oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

- R. Isyanov** 4 Ilm – mashaqqat, mas'uliyat va majburiyat
- R. Isyanov** 6 Ilm – mashaqqat, mas'uliyat va majburiyatligi ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- Sh. Ergashev** 10 Uzluksiz ta'lim tizimida kasbga yo'naltirishning nazariy asoslari
- Z. Otaboyeva, R. Mamatov** 14 Talabalarda hamkorlik madaniyatini rivojlantirish
- M. Kayumova** 17 Oliy ta'lim muassasalari talabalarida korporativ madaniyatni rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlari
- M. Mamatqulova** 22 Ta'lim muassasalarida yoshlarni ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish
- Sh. Yunusov, E. Ashiraliyev** 28 Xalq ta'limi tizimida kadrlar masalasi: muammo va yechimlar (Sirdaryo viloyati xalq ta'limi tizimi misolida)
- M. To'qliyeva, U. Karimova** 33 Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish darslari vositasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda PIRLS xalqaro tadqiqotlarning ahamiyati
- M. Pardayeva** 36 Maktabda tabiiy fanlarni integratsion o'qitish: "Science"ni joriy etishning muammo va yechimlari
- Z. Madrahimova, K. Eshonqulova, M. Altibayeva** 39 Yoshlar tarbiyasida harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- D. Rahmatullayeva** 44 Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida tizimli yondashuv asosida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish
- S. Turdiboyev** 49 Geometrik masalalarni yechishda o'quvchilarning konstruktiv qobiliyatini rivojlantirish
- M. Mirzayeva** 53 Bo'lajak muhandislarning chet tili kommunikativ kompetentligini shakllantirish
- U. Bazarova** 60 Texnika oliygohi talabalarini chet tili vositasida tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari
- Z. Beknazarova** 64 Fizika o'qitish metodlarining o'ziga xos tomonlari



TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT

- B. Berdiyev** 67 Talabalar mustaqil ishining o'ziga xos xususiyatlari ta'lim sifatini ta'minlash omili



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- Sh. Botirova** 71 Adabiy ta'lim klasterida "maktab laboratoriya" tuzilmasi
- L. Rajabova** 75 Integrativ – differensial yondashuv asosida bo'lajak ijtimoiy soha mutaxassislarini o'qitish nazariyasi

Shaxlo BOTIROVA,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrası dotsenti

ADABIY TA'LIM KLASSTERIDA "MAKTAB- LABORATORIYA" TUZILMASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada "Maktab-laboratoriya" innovatsion tajriba maydonchalari umumiy o'rta ta'lim bosqichida adabiyot ta'limi klasterining shakliy belgilarini, tajriba-sinov jarayoniga qo'yilgan loyihalar esa adabiy ta'lim klasterining mazmun xususiyatlarini tashkil qilganligi va shu jihatdan adabiyot ta'limi klasterining maktab-laboratoriya tuzilmasi maqolada keltirilgan. loyihaning asosiy mazmunini ifodalashi hamda "Maktab-laboratoriya" innovatsion tajriba maydonchalarining yo'nalishlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Innovatsiya, tajriba, klaster, shakl, belgi, xususiyat, loyiha, tuzilma, o'rta ta'lim, adabiyot ta'limi, fan tarmoqlari, "Maktab laboratoriya".

В статье инновационные экспериментальные площадки "Школа-Лаборатория" формируют формальные характеристики кластера литературного образования в общем среднем образовании, а проекты, представленные в экспериментальном процессе, формируют содержательные характеристики кластера литературного образования. Лабораторная структура кластера отражает основное содержание представленного в статье проекта и анализируются направления инновационной экспериментальной площадки "Школа-лаборатория".

Ключевые слова. Инновация, эксперимент, кластер, форма, персонаж, особенность, проект, структура, среднее образование, литературное образование, наука, "Школьная лаборатория".

In this article, the innovative experimental sites "School-Laboratory" form the formal features of the cluster of literature education in general secondary education, and the projects submitted for the experimental process form the content features of the cluster of literary education. The school-laboratory structure of the cluster reflects the main content of the project presented in the article and the directions of innovative experimental sites "School-laboratory" are analyzed.

Key words. Innovation, experience, cluster, form, character, feature, project, structure, secondary education, literature education, science, "School Laboratory".

Pedagogik ta'lim jamiyatning barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyati va talabidan kelib chiqqan holda innovatsion modellarni o'zlashtirishni taqozo qiladi. Keyingi yillarda pedagogik ta'limga yangi ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida kirib kelgan klaster yondashuvi zamonaviy talablarga mosligi, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda ta'lim, fan va ishlab chiqarish bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro hamjihatlikni ta'minlashga qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Pedagogik ta'lim klasteri tizimning bugungi holatidan kelib chiqilganda hayotiy zarurat ekanligi oydinlashadi.

“Maktab-laboratoriya” innovatsion tajriba maydonchalari umumiy o'rta ta'lim bosqichida adabiyot ta'limi klasterining shakliy belgilarini, tajriba-sinov jarayoniga qo'yilgan loyihalar esa adabiyot ta'limi klasterining mazmun xususiyatlarini tashkil qiladi. Shu jihatdan adabiyot ta'limi klasterining maktab-laboratoriya tuzilmasi o'zida mazkur loyihaning asosiy mazmunini ifodalaydi.

Tadqiqotchi U. Xo'jamqulov “Maktab-laboratoriya” innovatsion tajriba maydonchalarining yo'nalishlari sifatida quyidagilarni qayd etadi: tajriba-innovatsion yo'nalish; ilmiy-uslubiy yo'nalish; ilmiy tadqiqot yo'nalishi; axborot-tahliliy yo'nalish¹.

Mazkur yo'nalishlar tadqiqotchi tomonidan umumiy metodologik asosga ega yo'nalishlar sifatida keltirilgan. Ushbu yo'nalishlarni fan tarmoqlari, xususan, adabiy ta'lim klasteri “Maktab-laboratoriya”lariga tatbiq qilinganda, quyidagi belgi-xususiyatlar namoyon bo'ladi:

- tajriba-innovatsion yo'nalish – adabiyot ta'limining yangilangan mazmunini amaliyotga tatbiq qilish va aprobatsiyadan o'tkazish; kasbgacha va kasbiy pedagogik tayyorlov bo'yicha ta'lim va tarbiyaning innovatsion usullari, shakllari va texnologiyalari bo'yicha innovatsion loyihalarni ishlab chiqish, aprobatsiya qilish va tatbiq etish;

- ilmiy-uslubiy yo'nalish – adabiyot fani o'qituvchilariga innovatsion faoliyat bo'yicha ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatish; konferensiyalar, seminarlar, master-klasslar, ochiq mashg'ulotlar, stajirovkalar, guruh va individual maslahatlar tashkil etish orqali adabiyot fani o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish va “Maktab-laboratoriya”da to'plangan innovatsion usullarni tarqatish;

- ilmiy tadqiqot yo'nalishi – adabiyot o'qitish metodikasini klaster vositasida takomillashtirish borasidagi ilmiy tadqiqotlarni ta'lim amaliyotlarida qo'llash va ekspertiza qilish, adabiyot ta'limini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishda samaradorlikni tadqiq qilish;

- axborot-tahliliy yo'nalish – adabiyot fani o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan ilg'or ta'lim usullarini o'rganish va umumlashtirish; ta'limga oid axborot resurslarini yaratish, jamlash va yangilab borish; ommaviy axborot vositalarida adabiyot ta'limining jozibadorligini oshiruvchi va uning mavqeyini ko'taruvchi reklama mahsulotlari, maqolalar hamda videoroliklar tayyorlash.

Adabiyot ta'limi klasteri “Maktab-laboratoriya” tuzilmasidagi adabiy ta'limning faoliyat yo'nalishlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

Ta'lim yo'nalishi:

- adabiyot ta'limida mavjud muammolarni aniqlash, tasniflash va bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish;

- hududda adabiyot ta'limi bo'yicha o'quv-uslubiy salohiyatning vertikal va gorizontal harakatlanish mexanizmini ishlab chiqish;

¹ Xo'jamqulov U.N. Maktab-laboratoriya. Uslubiy-qo'llanma. Chirchiq: Universitet, 2019. – 27-b.

-
- adabiyot dars mashg'ulotlari sifatini boshqarish va nazorat qilish;
 - adabiyot ta'limi bo'yicha o'quv-uslubiy samaradorlikni aniqlashning sodda va eng maqbul mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy qilish;
 - adabiy ta'limining o'quv-uslubiy sohasida o'zaro tyutorlik faoliyatini yo'lga qo'yish.
- Ta'lim vositalari yo'nalishi:
- adabiyot fanining o'quv reja va fan dasturlarini takomillashtirish;
 - adabiyot fanidan darslik, o'quv qo'llanmalarining mazmun-mundarijasini boyitish va saviyasini ko'tarish;
 - adabiyot dars mashg'ulotining yordamchi adabiyotlar va didaktik ta'minotini takomillashtirish;
 - adabiyot dars mashg'ulotlarida axborot texnologiyalari va pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishga erishish.

Ta'lim va fan yo'nalishi:

- adabiy ta'lim va fan o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish;
- adabiyotshunoslik ilmiy sohasida ta'lim turlariaro ustoz-shogird tizimini yo'lga qo'yish.

Adabiy ta'limni muvofiqlashtirish yo'nalishi:

- adabiy ta'limni innovatsion muvofiqlashtirish borasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish;
- adabiy ta'lim bo'yicha ta'lim turlari manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi hududiy boshqaruv tizimini yaratish;
- adabiy ta'limni muvofiqlashtirish tizimiga innovatsion usul va vositalarni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilish.

Klaster tamoyiliga asosan bir xil turdagi obyektlar to'plamining birgalikdagi faoliyati har doim alohida bajarilgandan ko'ra samaraliroq bo'ladi, shuningdek, bunday integratsiyalashuvda ularni bir butun holda boshqarish mumkin bo'ladi. Shunday ekan, klaster yondashuvini tatbiq qilish natijasida ta'lim turlari o'rtasida adabiyot ta'limini muvofiqlashtirish imkoniyati yaratiladi, adabiy ta'lim va fan o'rtasidagi integratsiya ta'minlanadi, uzviylik va uzluksizlik qaror topadi.

Har bir fanning tuzilishi uning o'rganish predmetining tuzilishini aks ettirgani kabi, adabiyot metodikasining tuzilishi maktabda adabiyot fanini o'qitish jarayonini aks ettiradi. Bu jarayonning asosiy elementlari quyidagilardan iborat: o'quv maqsadlari – o'quv predmeti – o'qituvchi – o'quvchi.

O'quv jarayoni esa o'zaro uzviy bog'langan quyidagi elementlardan iborat: 1) o'quv predmeti; 2) o'qitish, o'qituvchi faoliyati; 3) o'qitish, o'quvchi faoliyati. Metodika fanni o'qitish bilan bog'liq tegishli muammolarning quyidagi masalalarini hal qiladi: kimga o'qitish (o'quv predmetlari); nimani o'qitish (o'quv maqsadi); nimani o'rgatish (ta'lim mazmuni va tizimi), qanday o'qitish (o'qitish shakl va usullari). Klaster zanjirida o'quv jarayoni elementlari ta'lim turlari (klaster subyektlari) doirasida yondashuv bilan bog'liq o'zgarishlar kuzatilmaydi. Ammo metodika masalalari har bir klaster subyektining fan dasturiga mos holda muayyan o'zgarishlarga uchraydi. Bunda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, ta'lim mazmuni, ta'lim vositalari va shakllari bilan bog'liq xususiyatlar inobatga olinishi lozim.

Adabiyot fanining o'quv maqsadlari mavzu bo'yicha material tanlash va uni o'quvchiga yetkazish tizimiga ta'sir ko'rsatadi. Tanlangan (belgilangan) mavzu uni o'qitish tizimi va usullarini taqozo etadi; o'qituvchining faoliyati natijasida o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar shakllanadi.

Umumta'lim maktablarida bu elementlarning har biri juda murakkab aloqa va munosabatlar tizimiga ega. Mavzuning mazmuni nafaqat maktab maqsadlari bilan belgilanadi, balki o'zi ham ta'lim maqsadlariga ta'sir ko'rsatadi: masalan, badiiy adabiyot va adabiyot fanining rivojlanishi umumiy ta'lim tizimida mavzuni o'rganish maqsadlarini aniqlashtiradi va rivojlantiradi. O'quvchi, uning shaxsi, pedagogik jarayonda ochib berilgan qobiliyati va imkoniyatlari ta'limni tashkil etishning barcha qismlariga birday ta'sir ko'rsatadi. Bundan adabiy ta'limga klaster yondashuvini tatbiq qilish zarurat ekanligi oydinlashadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalangan bolada shakllangan dastlabki adabiy ko'nikmalar umumta'lim maktabida adabiyot ta'limini tashkil qilishga, o'z navbatida umumta'lim maktablarida o'quvchilarda shakllangan adabiy kompetensiyalar oliy ta'lim muassasalarida adabiyot ta'limini tashkil qilishning mazmunini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismailova, Zukhra, Ruzimurot Choriev, and Aynisa Musurmanova Mahfuza Aripjanova. "Methods of training of teachers of university on advanced training courses." *Journal of Critical Reviews* 7.5 (2020): P.413- 416.
2. Narbayeva, T.K, Musurmanova, A. "Priority areas of spiritual, moral and physical education of youth in the family". *Annals of the Romanian Society for Ceff Biology* 25.1 (2021): 6485-64Xo'jamqulov U.N. Maktab-laboratoriya. Uslubiy qo'llanma. Chirchiq: Universitet, 2019. – 88-b.
3. Ушенский К.Д. Человек как предмет воспитания. Монография. http://dugward.ru/library/pedagog/ushinskiy_chelovek1.html.
4. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik – T.: Yangi asr avlodi, 2010-y. 6-7-betlar.
5. Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J., A.Ibrohimov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T., O'qituvchi – 1992. 10-b.
6. Musurmonqulova M.M. Kreativ yondashuv asosida o'qitishning didaktik ta'minotini yaratish mexanizmlari // Maktab ta'limi, 2018. №4.